“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlarni qo‘llash chegaralari va standartlari: qiyosiy-huquqiy tahlil va milliy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari

Sevara Miraliyeva,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti
tayanch doktoranti
e-mail: sevaramiraliyeva1020@gmail.com

Аннотация. Ushbu tadqiqot ma’muriy huquqda diskretsiya institutining nazariy-huquqiy asoslari, qonunchilikda ifodalanishi hamda ularni amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, diskretsiya ma’muriy organga qonunda belgilangan doirada va vakolat maqsadiga muvofiq ravishda bir nechta qonuniy qaror variantlaridan birini tanlash erkinligini beradi. Maqolada xalqaro standartlar hamda Germaniya, Latviya, Gruziya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Armaniston va Ukraina qonunchiligida qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Ularda diskretsion vakolatlarni amalga oshirishda qonuniylik, mutanosiblik, tenglik, maqsadga muvofiqlik va tinglanish prinsiplariga amal qilish majburiyligi belgilangan. Davlat organining diskretsion aktlari u tanlagan sabab va motivlar ko‘rsatilgan holda yozma ravishda asoslanishi shart. Shu bilan birga, diskretsiyaning asossiz kengayishi korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi ta’kidlanib, ularni kamaytirish uchun protsedurani va qaror qabul qilish muddatlarini aniq belgilash hamda ochiq tanlov mexanizmlarini joriy etish tavsiya qilinadi. O‘zbekiston ma’muriy sud amaliyoti tahlili esa diskretsion vakolatning qonuniyligi va mutanosiblik testini baholashda haligacha ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Xulosa o‘rnida, diskretsion vakolatlarni to‘g‘ri qo‘llash va ularni huquqiy tartibga solish fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda ma’muriy organlar faoliyatida shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. Xulosada milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Калит сўзлар. diskretsiya, davlat organi, diskretsion vakolatlar, ma’muriy ixtiyoriylik, mutanosiblik prinsipi, qonuniylik, yozma asoslash, keng diskretsiya, korrupsiyaviy omillar, diskretsiyani cheklash

Аннотация. Данное исследование посвящено комплексному анализу теоретико-правовых основ института дискреции в административном праве, его отражения в законодательстве, а также механизмов реализации и контроля. Анализ источников показывает, что дискреция предоставляет административному органу свободу выбора одного из нескольких законных вариантов решения в установленных законом пределах и в соответствии с целью полномочия. В статье проводится

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

сравнительно-правовой анализ международных стандартов, а также законодательства Германии, Латвии, Грузии, Азербайджана, Кыргызстана, Казахстана, Армении и Украины. В них установлено обязательное соблюдение принципов законности, соразмерности, равенства, целесообразности и права быть выслушанным при реализации дискреционных полномочий. Дискреционные акты государственного органа должны быть обоснованы в письменной форме с указанием причин и мотивов выбора. В то же время подчеркивается, что необоснованное расширение дискреции порождает коррупционные риски, и для их снижения рекомендуется четко определять процедуры и сроки принятия решений, а также внедрять механизмы открытого конкурса. Анализ административной судебной практики Узбекистана, в свою очередь, показывает, что до сих пор существуют определенные проблемы в оценке законности дискреционных полномочий и применении теста на соразмерность. В заключение отмечается, что правильное применение дискреционных полномочий и их правовое регулирование служат эффективной защите прав и свобод граждан, а также обеспечению прозрачности в деятельности административных органов. В заключении представлены предложения и рекомендации по совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова. дискреция, государственный орган, дискреционные полномочия, административное усмотрение, принцип соразмерности, законность, письменное обоснование, широкая дискреция, коррупциогенные факторы, ограничение дискреции

Annotation. This research is devoted to a comprehensive analysis of the theoretical and legal foundations of the institution of discretion in administrative law, its reflection in legislation, as well as the mechanisms of its implementation and control. The analysis of sources shows that discretion grants an administrative body the freedom to choose one of several lawful decision options within the limits established by law and in accordance with the purpose of the authority. The article conducts a comparative legal analysis of international standards, as well as the legislation of Germany, Latvia, Georgia, Azerbaijan, Kyrgyzstan, Kazakhstan, Armenia, and Ukraine. They establish the mandatory observance of the principles of legality, proportionality, equality, expediency, and the right to be heard when exercising discretionary powers. Discretionary acts of a state body must be justified in writing, specifying the reasons and motives for the choice made. At the same time, it is emphasized that the unjustified expansion of discretion creates corruption risks, and to mitigate them, it is recommended to clearly define procedures and decision-making timeframes, as well as to introduce transparent competitive mechanisms. In turn, the analysis of the administrative court practice of Uzbekistan shows that there are still certain problems in evaluating the legality of discretionary powers and applying the proportionality test. In conclusion, the correct application of discretionary powers and their legal regulation serve to effectively protect the rights and freedoms of citizens, as well as to ensure transparency in the activities of administrative bodies. The conclusion provides proposals and recommendations for improving national legislation.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. discretion, state body, discretionary powers, administrative discretion, principle of proportionality, legality, written justification, broad discretion, corruption factors, limitation of discretion

Zamonaviy davlat boshqaruvida ma’muriy organlar faoliyatining samaradorligi ularning o‘zgaruvchan ijtimoiy munosabatlarga tezkor va moslashuvchan munosabat bildira olish qobiliyati bilan o‘lchanadi. Bu jarayonda davlat organlariga beriladigan diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlar o‘ziga xos vosita vazifasini o‘tab, **qonunchilikdagi umumiy qoidalarni individual hayotiy vaziyatlarga moslashtirish** imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlarning huquqiy tartibga solish amaliyotini o‘rganish milliy qonunchiligimizda ixtiyoriy vakolatlarni qo‘llashning muvozanatli va adolatli mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqiy tizimlarda qonun chiqaruvchi hayotning barcha vaziyatlarini oldindan ko‘ra olmasligi sababli ijro organiga muayyan tanlov erkinligini qoldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur erkinlik to‘g‘ri tartibga solinmasa, boshqaruv jarayonida turli tushunmovchiliklar, o‘zboshimchalik va korrupsiya holatlariga sabab bo‘lishi mumkin. Xorijiy huquqda mazkur vakolatlarni to‘liq yo‘q qilish emas, balki ularni tizimli tartibga solish, tegishlicha asoslantirish va samarali tekshirish usullariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. **O‘zbekistonda qabul qilingan “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq ma’muriy ixtiyoriylik alohida prinsip sifatida mustahkamlangan[1].** Ya’ni ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsion vakolatning) qonuniyligi prinsipi boshqa prinsiplar ichida mustaqil belgilandi. Bu orqali diskretsiya bo‘yicha dastlabki huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi doktrinal va amaliy masalalarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida yanada boyitish imkoniyati mavjud.

Davlat organlari qarorlarining qariyb 150 mingtasidan 70 mingdan ortig‘i ma’muriy sudlar tomonidan noqonuniy deb topilib, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan yuqori turuvchi yoki boshqa vakolatli organlarga 27 mingga yaqin xususiy ajrim chiqarilgan **[2]**.

Fuqarolarning ham endilikda ma’muriy sudlarga davlat organlari qarorlari yoki xatti-harakatlari ustidan bevosita shikoyat qilish huquqining berilishi, qolaversa, ma’muriy sudlarning vakolatlarini – davlat organlari diskretsion vakolatlardan qonuniy va asosli foydalanganini tekshirish vazifasini yuklash orqali kengaytirish **[2]** takliflarining ilgari surilganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Diskretsion vakolatlarning chegaralarini to‘g‘ri belgilash va ularni suiiste’mol qilishning oldini olish uchun, eng avvalo, mazkur huquqiy institutning tabiatini nazariy jihatdan to‘g‘ri anglab olish talab etiladi.

Davlat boshqaruvida ixtiyoriylik hech qachon mutlaq erkinlikni anglatmaydi, balki u qat’iy huquqiy qoliplar va doktrinal turlarga bo‘lingan holda amalga oshiriladi. Bu borada rivojlangan davlatlar, xususan,

qonunchilik tizimimizga yaqin bo‘lgan kontinental huquq oilasi tajribasi muhim metodologik asos vazifasini o‘taydi. Masalan, nemis ma’muriy huquqi diskretsiya borasida eng tizimli va chuqur ishlangan doktrinal apparatni ishlab chiqqan bo‘lib, aksariyat Yevropa va postsovet davlatlari aynan ushbu yondashuvni o‘zlashtirgan. Germaniyaning Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonuni **[3]** va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida **[4]** mazkur masala keng yoritilgan bo‘lib, unda diskretsiya va nomuayyan huquqiy tushunchalar o‘rtasidagi farq ajratilgan.

Qonun normasining gipoteza yoki dispozitsiya qismidagi umumiy xarakterga ega bo‘lgan “jamoat xavfsizligiga tahdid mavjud bo‘lsa”, “zarurat tug‘ilganda” yoki “jamoat manfaatlari taqozo etsa” kabi baholovchi tushunchalar asosan talqin doirasiga kiradi va bu o‘z o‘rnida nomuayyan huquqiy tushunchalar hisoblanadi. Nomuayyan huquqiy tushunchalar qo‘llanilganda yagona to‘g‘ri qaror mavjud bo‘ladi va ma’muriy sudlar organning ushbu tushunchalarni qanday qo‘llaganini to‘liq hajmda qayta tekshira oladi. Amaliyotda ko‘plab normalar ushbu ikki elementni birlashtiradi. Masalan: agar binoning holati jamoat xavfsizligiga xavf tug‘dirsa (nomuayyan tushuncha), qurilish nazorati idorasi binoni buzishni talab qilishi mumkin (diskretsiya). Xususan, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bino va inshootlarning zilzilaga bardoshliligiga ta'sir qiluvchi, inson salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi konstruktiv buzilishlar aniqlangan holatlarda, qurilish-montaj ishlarini to‘xtatib turish va demontaj (buzdirish) ishlarini amalga oshirishni talab qilishi mumkin. Shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etishga doir ko‘rsatmalar talablari bajarilmagan holatlarda faoliyatni qisman yoki to‘liq to‘xtatish yoxud taqiqlash to‘g‘risida sudga arizalar kiritish huquqi berilgan **[5]**. Unga ko‘ra, dastlab, Inspeksiya obyektdagi konstruktiv buzilishlarning “bino mustahkamligiga – zilzilaga bardoshliligiga ta’sir qiluvchi” yoxud “inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi” mezonlar bo‘yicha tekshiradi. Ushbu mezonlar qonunchilikdagi **nomuayyan huquqiy tushunchalar** bo‘lib, vakolatli organdan muayyan vaziyatdagi xavf darajasini o‘zining ekspertlik tajribasiga tayanib tahlil qilishni, ya’ni **baholash erkinligini** talab etadi. Agar obyektdagi tahdid tasdiqlansa, Inspeksiya o‘zining **diskretsion vakolati** doirasida vaziyatga eng mutanosib bo‘lgan ta’sir chorasini qo‘llaydi: qurilishni to‘xtatib turadi, obyektdagi xavfli qismni demontaj (buzdirish) qilishni talab qiladi yoxud ko‘rsatma ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda majburiy tartibda buzdirish to‘g‘risida sudga da’vo kiritadi. Qonunda qonunchilik hujjatlarida ruxsat etilgan bo‘lsa hamda diskretsion vakolat va baholash erkinligi bo‘lmasa, avtomatik tarzda qaror qabul qilinishi mumkin **[3]**. Lekin mazkur vaziyatda nomuayyan huquqiy tushunchalar mavjud bo‘lgani uchun baholash erkinligini qo‘llash talab qilinmoqda va muqobil choralardan birini tanlash zaruriyati yuzaga kelgani uchun diskretsion vakolatni amalga oshirish zarur bo‘lmoqda. Shuning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

uchun avtomatik tarzda qaror qabul qilinmaydi.

Haqiqiy diskretsiya esa bevosita normaning huquqiy oqibat darajasida, ya’ni organga bir nechta qonuniy qarorlardan birini erkin tanlash huquqi berilgandagina yuzaga keladi. Mazkur huquqiy doktrinada ma’muriy organ ma’muriy tartib-taomilni amalga oshirish-oshirmaslikni va buni qachon amalga oshirishni o‘zining xizmat burchiga asoslangan diskretsiyasiga muvofiq hal qiluvchi **harakat diskretsiyasi** hamda vaziyatga aralashish zarurligi aniq bo‘lganda aynan qaysi chorani qo‘llash uchun aynan qaysi dalillarni to‘plash vositasidan foydalanishni yoki ma’muriy hujjatga qanday qo‘shimcha shartlar yuklash zarurligini belgilab beruvchi **tanlov diskretsiyasi**ga **[3]** bo‘linadi.

O‘zbekiston qonunchiligining, xususan “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida keltirilgan ma’muriy ixtiyoriylik ta’rifi **[1]** mazkur ikkala turni ham o‘zida mujassam etganligi bilan g‘oyat ahamiyatlidir.

J. Nematov ma’muriy ixtiyoriylikni qonunda o‘rnatilgandan boshqacha tarzda qo‘llash uning noqonuniyligini keltirib chiqarishini ta'kidlaydi va uning quyidagi ko‘rinishlarini ko‘rsatib o‘tadi: faktik xatolar, maqsadga nomuvofiqlik, tartib-taomildagi xatoliklar, harakatsizlik **[6]**. Shuningdek, amaliyotda muayyan xavfli sharoitlarda, xususan, inson hayoti va sog‘lig‘iga real tahdid yuzaga kelganda ma’muriy organning tanlov erkinligi yo‘qolib, u aralashishga va faqat bitta qonuniy qaror qabul qilishga majbur bo‘ladigan “diskretsiyaning nolga qisqarishi” konstruksiyasi ham mavjud. Misol uchun, shaharning markaziy ko‘chasida joylashgan binoning tayanch konstruksiyasida to‘satdan yirik yoriqlar paydo bo‘ldi va binoning bir qismi qiyshayib, qulash holatiga kelib qoldi. Mas’ul davlat organi qonunda belgilangan muqobil variantlarni, masalan, bino egasiga ogohlantirish xati yuborib, muddat berish o‘rniga, hech qanday sud qarorini kutmasdan darhol yagona to‘g‘ri va majburiy qarorni qabul qilishi shart – hududni zudlik bilan o‘rab olish, odamlarni evakuatsiya qilish va binoni favqulodda demontaj qilish. Kodeksda sud diskretsion vakolatning qonunda belgilangan chegaralaridan chiqilganligini yoxud bu vakolatdan uni berish **maqsadiga mos kelmaydigan tarzda foydalanilganligini** o‘rganadi **[4]**. Sud ma’muriy organ diskretsiyasini maqsadga muvofiqlik prinsipi asosida ham tekshirishi lozim bo‘ladi. Bu yerda esa davlat organining asosiy maqsadi inson hayoti, sog‘lig‘i yoki ommaviy xavfsizlikni ta’minlash hisoblanadi. Ushbu doktrinal mexanizm bevosita boshqaruvda mas’uliyatni oshirishga hamda davlat organlarining asossiz harakatsizligini oldini olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy davlat boshqaruvida davlat organlarining ixtiyoriy vakolatlarini tartibga solish va ularning qonuniyligini ta’minlashda xalqaro standartlar muhim o‘rin tutadi.

Diskretsiyani amalga oshirishning xalqaro standartlarini tahlil qilganda, Yevropa kengashi Vazirlar qo‘mitasining 1980-yil 11-martda qabul qilingan diskretsion vakolatlarga oid maxsus tavsiyasi (R(80)2) xalqaro tajribada asosiy o‘lchov mezonlaridan biri

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hujjatda ma’muriy organ qaror qabul qilishda vakolat berilgan **maqsadga ergashishi, xolislikni saqlashi, tenglik va mutanosiblik** tamoyillariga rioya etishi hamda oqilona muddatlarda ish ko‘rishi qat’iy belgilangan **[7]**. Ushbu tamoyillar, o‘z navbatida, boshqaruv jarayonida davlat xizmatchilari tomonidan vakolatlarning suiiste’mol qilinishi, noxolislik yoki korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qarorlarni qabul qilishda umumiy ma’muriy yo‘riqnomalarni izchil qo‘llash bilan birga, har bir ishning o‘ziga xos holatlarini, jumladan, manfaatdor shaxslarning individual vaziyatini e’tiborga olish talab etiladi. Hujjatda diskretsiyani amalga oshirishni tartibga soluvchi yo‘riqnomalarni e’lon qilish va ulardan chetga chiqilgan hollarda shaxsni buning sabablari haqida yozma xabardor qilish prosessual kafolat sifatida mustahkamlangan **[7]**. Bunday shaffoflik va ochiqlik mexanizmlari fuqarolarning davlat boshqaruvi organlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shu bilan birga, Yevropa ittifoqining Asosiy huquqlar xartiyasining 41-moddasi (“Samarali davlat boshqaruvi huquqi”) va “Samarali boshqaruv to‘g‘risida”gi CM/Rec(2007)7-tavsiyasi orqali manfaatdor shaxsning **tinglanish huquqi mavjudligi** hamda **qarorni asoslantirish majburiyati** subyektning kafolatlangan huquqi darajasiga ko‘tarilgan. Ushbu xalqaro hujjatlarga ko‘ra, har bir shaxs o‘ziga tegishli bo‘lgan ishlarning xolis, adolatli va maqbul muddatlarda ko‘rib chiqilishi huquqiga egadir **[8]**. Qabul qilinayotgan ma’muriy qarorlarning huquqiy va faktik jihatdan asoslantirilishi esa, ular ustidan sud tartibida samarali shikoyat qilish imkoniyatini yaratadi va diskretsion vakolatlarning chegarasidan chiqib ketishdan saqlovchi muhim vositaga aylanadi.

Postsovet davlatlarida ma’muriy diskretsiya institutining tatbiq etilishi. Postsovet makonida, xususan, nemis-avstriya huquqiy modelini qabul qilgan davlatlarda ma’muriy diskretsiya institutining joriy etilishi milliy qonunchiligimiz uchun o‘ziga xos taqqoslash maydoni vazifasini o‘taydi. Bu borada **Qozog‘iston** Respublikasining 2020-yilda qabul qilingan Ma’muriy proseduraviy-protsessual kodeksi tizimli misollardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hujjatda diskretsiya instituti mutanosiblik, huquqlar ustunligi, ishonchni muhofaza qilish va ma’muriy ixtiyoriy vakolat (diskretsiya) doirasi kabi prinsiplar orqali keng qamrab olingan **[9]**.

Xususan, ma’muriy ixtiyoriylikni amalga oshirishda organ ishtirokchi va jamiyat manfaatlarining adolatli muvozanatini ta’minlashi, qabul qilinayotgan hujjat esa vaziyatga mos, zarur va mutanosib bo‘lishi qat’iy belgilangan bo‘lib, bunda xorijiy tajribadagi uch bosqichli mutanosiblik testi qonun matniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri singdirilgan.

Shuningdek, qonunchilikdagi bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyat va noaniqliklar doimo shaxs foydasiga talqin qilinishi kafolatlangan. Qozog‘iston modelining eng muhim o‘zagini ma’muriy sudlovda sudning faol roli tamoyili tashkil etadi. Unga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ko‘ra, sud faqatgina tomonlar keltirgan dalillar bilan cheklanib qolmasdan, **tashabbusi bilan dalillar yig‘adi** va organdan **diskretsiya asoslarini to‘liq izohlash**ni talab qiladi **[9]**. Ushbu yondashuv fuqaro va davlat organi o‘rtasidagi isbotlash imkoniyatlarining tengsizligini bartaraf etishga va amaliyotda uchrab turadigan rasman qonuniy, biroq mazmunan nomutanosib qarorlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Ushbu sohada **Gruziya**ning Umumiy ma’muriy kodeksi tajribasi ham diqqatga sazovordir. Unda diskretsiya ta’rifi, **vakolat maqsadi va manfaatlarni o‘lchash majburiyati [10]** asosiy talablar sifatida mustahkamlangan bo‘lsa-da, qonunning amalda samarali ishlashi uchun sudyalar va davlat xizmatchilarini yangicha doktrina asosida **maxsus tayyorlash hamda o‘qitish** hal qiluvchi omil bo‘lganligi kuzatiladi. Misol uchun, sudya lavozimiga tayinlanish uchun nomzodlar sudyalik malaka imtihonini topshirganidan so‘ng Oliy Adliya maktabida to‘liq o‘quv kursini (16 oy, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarida kamida 10 yillik ish stajiga ega bo‘lganlar uchun esa 12 oy) o‘tashi shart. Amaldagi sudyalarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni qonunchilikdagi ва ilmiy yangiliklar hamda xorijiy sud amaliyoti bilan tanishtirib borish uchun har yili qayta tayyorlash dasturlari amalga oshiriladi. Amaldagi sudyalarning malakasini oshirish dasturlarining majburiy tarkibiy qismi sifatida **inson huquqlari huquqi**, xususan Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi pretsedent huquqini o‘qitish va o‘rganish belgilangan **[11]**.

Davlat xizmatchisi esa o‘z kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirish va taklif etilgan professional rivojlanish dasturlarida ishtirok etishi shart. Har bir davlat muassasasi har yilning boshida Hukumat tomonidan **tasdiqlangan standartlar, idora ehtiyojlari va xodimlarni baholash natijalari asosida** kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlaydi. Gruziya Hukumat ma’muriyati davlat xizmatidagi kadrlar malakasi va kasbiy tayyorgarlik darajasini o‘rganadi, davlat xizmatchilarining professional rivojlanishi bo‘yicha yagona standartlarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini nazorat qiladi. Davlat xizmatchisiga majburiy professional rivojlanish dasturlarida qatnashish davrida uning lavozim maoshi va daraja ustamasi saqlangan holda o‘quv ta’tili beriladi **[12]**. Demak, Gruziya diskretsion vakolatlarni to‘g‘ri qo‘llash hamda diskretsion xatolarning oldini olish borasida davlat organlari mansabdor shaxslari va xodimlarining doimiy o‘z ustida ishlashiga sharoit yaratib beradigan hamda buni tizimning asosiy talabi etib belgilagan davlat hisoblanadi.

Umumiy tendensiyalarga nazar tashlanganda, **Ozarbayjon [13]**, **Armaniston [14]**, **Latviya [15]** va **Qirg‘iziston [16]** kabi qator davlatlar qonunchiligida ham ma’muriy organ tushunchasi keng talqin qilinib, diskretsiya prinsiplari o‘xshash tarzda qonun darajasida mustahkamlanganligini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, **Ukraina** tajribasida normativ hujjatlarning antikorrupsion ekspertizasi jarayonida “keng diskretsiya” alohida korrupsiyaviy omil sifatida maxsus metodologiya **[17]** asosida

baholanishi yo‘lga qo‘yilgan. Unga ko‘ra, ekspertiza o‘tkazishning 3 bosqichi: umumiy baholash, moddama-modda antikorrupsion baholash va xulosa, tavsiyalar shakllantirish amalda bo‘lib, quyidagi asosiy omillar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi tekshiriladi: diskretsion vakolatlarning kengayishi, vakolat doirasidan chiqish, oshirilgan talablar va ortiqcha ma’muriy g‘ovlar, ma’muriy va tanlov (auksion) tartib-taomillarining chala yoki yo‘qligi, noaniq lingvistik iboralar hamda huquqiy bo‘shliqlar **[17]**.

Ushbu omillar yoki ulardan biri bo‘yicha korrupsiyaviy holat aniqlanganda – davlat organiga berilayotgan vakolatni chiqarib tashlash yoki cheklash, o‘z xohishiga ko‘ra qabul qilinadigan qarorlarni kamaytirish yoki vakolatni yuqori organga o‘tkazish masalasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, normativ hujjat maqsadi va mazmuniga qarab, qaror qabul qilishning aniq muddatlari, shartlari va qat’iy asoslarini normativ hujjatga kiritish, qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan asoslarning tugal ro‘yxatini va mansabdor shaxs zimmasiga u tanlagan konkret yechimning sabab hamda motivlarini yozma ravishda asoslab berish majburiyatini yuklash, diskretsion vakolatni qo‘llashda boshqa vakolatli organlar bilan kelishish tartibini belgilash zaruriyati bo‘yicha ekspertiza xulosasi berilishi mumkin. Ayrim qarorlarni qabul qilishga doir qo‘shimcha taqiqlar belgilanishi, xususan, korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan sohalarda mansabdor shaxslar uchun anti-korrupsiyaviy cheklovlar kiritilishi, fuqarolar va yuridik shaxslardan talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati, axborot hajmi hamda ularga qo‘yiladigan mezonlar soni qisqartirilishi, turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan, baholi va noaniq tushunchalar hamda lingvistik atamalarni aniqlashtirish orqali mansabdor shaxsning turlicha qaror qabul qilish imkoniyatini yo‘qotish, amaliyotda mansabdor shaxs o‘z xohishiga ko‘ra to‘ldirishi mumkin bo‘lgan huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalarni normativ darajada bartaraf etish hamda biror huquq, imtiyoz yoki mol-mulkni berishda ochiq tanlov (auksion) tartibini joriy etish, g‘olibni aniqlashning obyektiv mezonlarini o‘rnatish hamda komissiya a’zolari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ham ishlab chiqilishi mumkin **[17]**.

Bunday yondashuvlar ma’muriy ixtiyoriylikni huquqiy jihatdan tartibga solish va uning doirasini aniq belgilash davlat boshqaruvi sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Milliy qonunchilikdagi holat va takomillashtirish yo‘nalishlari. O‘zbekistonning “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni moddiy prinsiplar darajasida xalqaro standartlarga juda yaqin bo‘lib, unda diskretsion vakolatning qonuniyligi (5, 17-moddalar), mutanosiblik (7-modda), ishonchning himoya qilinishi (16-modda) va holatlarni to‘liq tekshirish (18-modda) tamoyillari mustahkamlangan **[1]**. Shu bilan birga, boshqaruv sifatini yanada yaxshilash maqsadida ma’lum yo‘nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, qonunning 54-moddasini to‘ldirish orqali diskretsion qarorni asoslantirishning maxsus standartini qonunchilikda aks

ettirish muhim bo‘lib, bunda ko‘rib chiqilgan muqobil variantlar va o‘lchangan manfaatlar yozma ravishda bayon qilinishi amaliyotda shaffoflikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ma’muriy ichki yo‘riqnomalarning oshkoraligini ta’minlash va ulardan og‘ishgan hollarda sabablarni tushuntirish tartibini joriy etish orqali ma’muriy organning “o‘zini o‘zi bog‘lash” institutini to‘liq ishlatish mumkin.

Uchinchidan, qonunchilikdagi 7-moddani kengaytirib, mutanosiblik prinsipini moslik, zarurat va proporsionallik mezonlari asosida uch bosqichli test shaklida qo‘llash algoritmini huquqiy hujjatlarda aniq belgilash huquqni qo‘llash amaliyotida qulaylik yaratadi.

To‘rtinchidan, normativ hujjatlar loyihalarini diskretsiya ko‘lami bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish hamda sudyalar va davlat xizmatchilari uchun mazkur doktrinani keng tushuntiruvchi metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diskretsiya boshqaruv tizimi uchun nihoyatda zarur va foydali instrument hisoblanadi. Biroq u faqatgina mezonlarning oldindan aniq belgilanishi, qarorlarning yozma ravishda mantiqiy asoslantirilishi hamda sudlar tomonidan real qonuniylik nazoratining amalga oshirilishi orqaligina huquqiy davlat tamoyillariga xizmat qila oladi. Ushbu uchta asosiy poydevorning milliy qonunchiligimizda va huquqni qo‘llash amaliyotida izchil aks ettirilishi davlat organlari faoliyatining samaradorligini va fuqarolarning ularga bo‘lgan ishonchini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni. 457-son 10.01.2019 // URL: https://lex.uz/docs/-3492199

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: https://president.uz/oz/lists/view/9647

3. Federal Republic of Germany. (1976/2003). Verwaltungsverfahrensgesetz [Administrative Procedure Act] (VwVfG). Bundesgesetzblatt (BGBl. I S. 102). § 114. // URL: https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/

4. Federal Republic of Germany. (1960/1991). Verwaltungsgerichtsordnung [Code of Administrative Court Procedure] (VwGO). Bundesgesetzblatt (BGBl. I S. 686). § 114. // URL: https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga 1-ilova 14-bandi. 602-son 22.09.2025 // URL: https://lex.uz/en/docs/-7737811#-7739222

6. Nematov, J. N. O‘zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to‘lishi

arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar. Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of Law Sciences, (2024) Vol. 8, 59–71. // URL: https://review.tsul.uz/index.php/yfa/article/view/502/462

7. Committee of Ministers of the Council of Europe. (1980). Concerning the exercise of discretionary powers by administrative authorities (Recommendation No. R (80) 2). Council of Europe // URL: https://rm.coe.int/090000168091d5b6

8. European Union. (2012). Charter of fundamental rights of the European Union: Article 41 (Right to good administration). Official Journal of the European Union, C. 326, 391–407. URL:

https://avalonlibrary.net/Charter_of_Fundamental_Rights_of_the_European_Union%20(2012)/Charter%20of%20Fundamental%20Rights%20of%20the%20European%20Union%20(2012).pdf

9. Республика Казахстан. (2020). Административный процедурно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 29 июня 2020 года № 350-VI ЗРК. Ведомости Парламента Республики Казахстан. URL: https://gov4c.kz/upload/iblock/8ee/rs82v0e24z9wutdyb0hav83gkss3v3qi.pdf?ysclid=mucnrkcs681232041

10. General Administrative Code of Georgia [Adopted on June 25, 1999, No. 2181-IIs] // Legislative Herald of Georgia (Sakartvelos Sakanonmdeblo Matsne), 1999. – No. 32(39). // URL:

https://matsne.gov.ge/ka/document/view/16270?publication=45

11. Organic Law of Georgia on Common Courts [Law No. 2257-Is of December 4, 2009] // Legislative Herald of Georgia (Sakartvelos Sakanonmdeblo Matsne), 2009. – No. 41.

URL:
https://matsne.gov.ge/ka/document/view/90676?publication=61

12. Law of Georgia on Public Service [Law No. 4346-Is of October 27, 2015] // Legislative Herald of Georgia (Sakartvelos Sakanonmdeblo Matsne), 2015. URL: https://matsne.gov.ge/ka/document/view/3031098?publication=74

13. Republic of Azerbaijan. (2005). Law of the Republic of Azerbaijan on administrative proceedings (Law No. 1036-IIQ). Collection of Legislation of the Republic of Azerbaijan. URL: https://www.cbar.az/law-201/law-no-1036-iiq?language=en

14. Republic of Armenia. (2004). Law of the Republic of Armenia on fundamentals of administrative action and administrative proceedings (Law No. HO-41-N). Official Gazette of the Republic of Armenia, 18(317), Art. 413. URL: https://www.arlis.am/hy/acts/117009

15. Parliament of Latvia. (2001). Administrative procedure law. No. 164.

URL:https://www.europam.eu/data/mechanisms/PP/PP%20Laws/Latvia/7.%20Administrative%20Procedure%20Law%20of%202004_LAT,%20consolidated,%20last%20amended%202017.pdf

16. Supreme Council of the Kyrgyz Republic. (2015). Law of the Kyrgyz Republic on the foundations of administrative activity and administrative procedures (Law No. 210). Erkin Too, No. 78. URL: htt

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ps://www.rti-rating.org/wp-content/uploads/2020/05/Kyrgyzstan-Law-on-Administrative-Procedures.pdf

17. Об утверждении Методологии проведения антикоррупционной экспертизы проектов нормативно-правовых актов: Постановление Кабинета Министров Украины от 8 декабря 2009 г. № 1346 // Официальный вестник Украины. – 2009. – № 97. – Ст. 3349 // URL: https://prg.kz/document/?doc_id=30536719